

**ELEKTRON BOSHQARUVDA DAVLAT ORGANLARI
FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH: QOZOG‘ISTON TAJRIBASI**

Hakimova Hilola Fazliddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi huquqi yo‘nalishi magistri
E-mail: hilolahakimova02@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada davlat boshqaruvi tizimida raqamlashtirish jarayonlari va elektron hukumatni rivojlantirish masalalari Qozog‘iston Respublikasi tajribasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda elektron hukumat infratuzilmasi, jumladan, E-gov.kz portali, ichki boshqaruv tizimlari (E-Kyzmet, E-Otinish), ma‘lumotlar integratsiyasi platformalari (Smart Bridge, Smart Data Ukimet) hamda mobil hukumat xizmatlarining o‘rni yoritilgan. Maqola yakunida Qozog‘iston tajribasi asosida O‘zbekistonda davlat boshqaruvini raqamlashtirishni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** elektron hukumat, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, E-gov.kz, raqamli davlat, proaktiv xizmatlar, Smart Bridge, Big Data, davlat xizmatlari.*

Kirish

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi davlat xizmatlari sifatini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish hamda boshqaruv samaradorligini ta‘minlashda muhim omilga aylandi. Shu nuqtai nazardan elektron hukumat (E-Government) konsepsiyasi zamonaviy davlat boshqaruvining asosiy elementlaridan biri sifatida shakllandi.

Qozog‘iston Respublikasi elektron boshqaruvni rivojlantirish borasida Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Xususan, BMTning Elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) reytingida mamlakat muntazam ravishda yuqori pog‘onalarda qayd etilmoqda. Xususan 2024-yilgi indeksda Qozog‘iston 24-o‘rinni qayd etgan¹. Bu esa davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha kompleks va tizimli siyosat olib borilayotganini ko‘rsatadi. Ma’lumot uchun, EDGI - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo davlatlarning elektron hukumatni rivojlantirish holatini ko‘rsatadi. Mamlakatda veb-saytlarni rivojlantirish modellarini baholash bilan bir qatorda, Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi infratuzilma va ta’lim darajasi kabi kirish xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi, bu mamlakatning o‘z aholisining imkoniyatini va inklyuzivligini oshirish uchun axborot texnologiyalaridan qanday foydalanayotganini aks ettiradi. EGDI elektron hukumatning rivojlanish darajasini uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholaydi: onlayn xizmatlarni taqdim etish, telekommunikatsiya aloqasi va inson salohiyati².

Mazkur maqolaning maqsadi — Qozog‘iston tajribasi misolida davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish mexanizmlarini tahlil qilish va ushbu tajriba asosida O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish jarayonlarini chuqur o‘rganish uchun bir nechta o‘zaro bog‘liq ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

¹ UN E-Government Knowledgebase/Country Data. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data-Center>

² UN E-Government Knowledgebase. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/About/Overview/-E-Government-Development-Index>

Tizimli tahlil usuli davlat boshqaruvi tizimini yaxlit bir mexanizm sifatida ko‘rib chiqish va uning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul doirasida Qozog‘istonning raqamli hukumat ekotizimi quyidagi komponentlarga ajratib o‘rganildi:

1. davlat xizmatlar ko‘rsatish tizimi (E-gov.kz orqali);
2. ichki boshqaruv tizimlari (E-Kyzmet va E-Otinish);
3. ma’lumotlar almashinuvi infratuzilmasi (Smart Bridge);
4. tahliliy platformalar (Smart Data Ukimet);
5. mobil xizmatlar (eGov Mobile).

Masalan, tizimli yondashuv orqali shuni ko‘rish mumkinki, fuqaro tomonidan yuborilgan murojaat (E-Otinish) boshqa davlat organlari bazalari bilan integratsiya qilinib, Smart Bridge orqali qayta ishlanadi va natijada xizmat ko‘rsatish jarayoni tezlashadi. Bu esa tizimning barcha elementlari o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Taqqoslash usuli Qozog‘iston tajribasini boshqa davlatlar, xususan O‘zbekiston va rivojlangan davlatlar amaliyoti bilan qiyoslash orqali uning o‘ziga xos va samarali jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu usul doirasida - elektron hukumat rivojlanish darajasi (EGDI indeksi), davlat xizmatlarining raqamlashtirish ulushi, proaktiv xizmatlar mavjudligi, mobil hukumat rivojlanish darajasi hamda ma’lumotlar integratsiyasi darajasi kabi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Masalan: Qozog‘istonda davlat xizmatlarining 90% dan ortig‘i elektron shaklda ko‘rsatilsa, boshqa ayrim davlatlarda bu ko‘rsatkich pastroq bo‘lishi mumkin; yoki proaktiv xizmatlar (masalan, bola tug‘ilganda avtomatik xizmat ko‘rsatish) barcha davlatlarda mavjud emas. Shu orqali Qozog‘iston

modelining afzalliklari va transfer qilinishi mumkin bo'lgan elementlari aniqlanadi.

Empirik tahlil ochiq manbalarda e'lon qilingan statistik ma'lumotlar, rasmiy hisobotlar va analitik materiallarni o'rganishga asoslanadi. Tadqiqotda quyidagi turdagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi:

1. elektron davlat xizmatlari ulushi (% hisobida);
2. onlayn xizmatlardan foydalanuvchilar soni;
3. mobil ilovalar orqali ko'rsatilgan xizmatlar ulushi;
4. davlat organlariga murojaatlar soni va ularning ko'rib chiqilish tezligi;
5. davlat xizmatlarini ko'rsatish muddati (oldin va keyin);
6. korrupsiya darajasi indeksidagi o'zgarishlar (bilvosita ta'sir sifatida).

Xususan, BMT hisobotlari asosida Qozog'istonning global reytingdagi o'rni va uning yillar davomida o'sish dinamikasi tahlil qilinadi.

Normativ-huquqiy tahlil davlat boshqaruvini raqamlashtirishni tartibga soluvchi qonunlar, strategiyalar va dasturlarni o'rganishga qaratilgan. Masalan, raqamli hujjatlarning qog'oz hujjatlar bilan teng huquqiy kuchga ega ekanligi qonunchilik darajasida mustahkamlangan bo'lib, bu mobil hukumat rivojlanishiga asos yaratgan.

Yuqoridagi usullarni kompleks qo'llash natijasida Qozog'istonda davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayoni har tomonlama — texnologik, institutsional va huquqiy jihatdan chuqur tahlil qilinadi. Bu esa nafaqat mavjud tizimni baholash, balki uni boshqa davlatlar, xususan O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkonini ham beradi. Tadqiqotda asosiy manbalar sifatida BMTning elektron hukumat

bo'yicha hisobotlari, Qozog'iston Respublikasining "Raqamli Qozog'iston" davlat dasturi, shuningdek, rasmiy elektron platformalar ma'lumotlaridan foydalanildi.

Natijalar

Strategik va institutsional asoslar. Qozog'istonda boshqaruvni raqamlashtirish "Raqamli Qozog'iston" davlat dasturi hamda "Aqlli" shaharlar uchun Etalon standarti³ doirasida amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatlar raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali aholi turmush darajasini oshirish va hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan. "Raqamli Qozog'iston" Davlat Dasturi raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali mamlakatning har bir aholisi uchun turmush darajasini oshirishga qaratilgan muhim kompleks dasturdir.

Qozog'iston Respublikasining "Aqlli" shaharlar uchun Etalon standarti Respublikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda "aqlli" shaharlarni qurish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi va yagona yondashuvlarni belgilaydi. 2018-yildan beri mintaqada 11 ta sohada (sog'liqni saqlash, ta'lim, xavfsizlik, uy-joy kommunal xo'jaligi, transport, shahar boshqaruvi, ijtimoiy soha, ekologiya, biznesni rivojlantirish va turizm, qurilish va qishloq xo'jaligi) etalon standartini joriy etib kelmoqda.

Davlat dasturi 2018-yildan 2022-yilgacha beshta asosiy yo'nalishda amalga oshirildi:

Iqtisodiy sohani raqamlashtirish – mehnat unumdorligini oshiradigan va kapitallashtirishning o'sishiga olib keladigan ilg'or texnologiyalar va imkoniyatlardan foydalangan holda Qozog'iston iqtisodiyotining an'anaviy sohalarini o'zgartirish.

³ Об утверждении Методики построения "умных" городов (Эталонный стандарт "умных" городов Республики Казахстан (Эталонный стандарт «умных» городов Республики Казахстан).
<https://adilet.zan.kz/rus/docs/G25IPM00469/links#from>.

Raqamli davlatga o'tish – davlat infratuzilmasini aholi va biznesga ularning ehtiyojlarini oldindan bilgan holda xizmat ko'rsatish uchun o'zgartirish.

Raqamli Ipak yo'lini amalga oshirish – ma'lumotlarni uzatish, saqlash va qayta ishlash uchun yuqori tezlikdagi va xavfsiz infratuzilmani rivojlantirish.

Inson kapitalini rivojlantirish – ijodiy jamiyatni rivojlantirish va yangi voqelikka – bilim iqtisodiyotiga o'tishni qamrab oluvchi o'zgarishlar. Innovatsion ekotizim yaratish – biznes, akademik doiralar va hukumat o'rtasidagi barqaror aloqalar bilan texnologik tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy etish uchun sharoit yaratish⁴.

Elektron hukumat tizimi. Elektron hukumat tizimining markaziy elementi — E-gov.kz portali hisoblanadi. Mazkur platforma davlat xizmatlarini ko'rsatishda “yagona kirish nuqtasi” vazifasini bajaradi va fuqarolar hamda biznes subyektlariga davlat organlari bilan o'zaro aloqani soddalashtiradi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda davlat xizmatlarining 90 foizdan ortig'i elektron shaklda aynan ushbu portal orqali taqdim etiladi⁵. Portal faoliyati bir necha muhim tamoyillarga asoslanadi:

Yagona darcha tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, foydalanuvchi turli davlat organlariga alohida murojaat qilmasdan, barcha xizmatlardan bitta platforma orqali foydalanadi. Masalan, fuqarolar yashash joyini ro'yxatdan o'tkazish, soliq to'lovlari yoki ijtimoiy xizmatlarga oid masalalarni yagona tizim orqali hal qilishi mumkin. Bu esa byurokratik jarayonlarni qisqartiradi va vaqt tejatlashini ta'minlaydi.

⁴ <https://www.gov.kz/memleket/entities/zhambyl-shu/activities/11349?lang=ru>.

⁵ Since the beginning of 2025, over 26 million state services have been provided to citizens of Kazakhstan online. https://egov.kz/cms/en/news/public_services_online.

Interaktiv va transaksion xizmatlar. Portal orqali foydalanuvchilar elektron ariza topshirish; zarur hujjatlarni yuklash hamda davlat xizmatlari natijasini onlayn olish imkoniyatiga ega. Bu bosqich elektron hukumat rivojlanishining muhim pogʻonasi boʻlib, davlat xizmatlarini toʻliq raqamli shaklga oʻtkazishni anglatadi. Ushbu jarayon Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan eʼtirof etilgan elektron hukumat rivojlanish modeliga⁶ ham mos keladi.

Proaktiv xizmatlar tizimi. Qozogʻiston tajribasining eng ilgʻor jihatlaridan biri — xizmatlarni fuqarolarning bevosita murojaatisiz koʻrsatish mexanizmidir. Masalan, bola tugʻilganda ota-onaga avtomatik ravishda SMS xabar yuboriladi va tegishli davlat xizmatlari (tugʻilganlikni roʻyxatga olish, nafaqa tayinlash, bogʻchaga navbatga qoʻyish) tizim tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Bu esa davlat xizmatlarini “oldindan koʻruvchi” modelga oʻtkazadi. Shuningdek, portal boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan boʻlib, bu maʼlumotlarni takroran talab qilishni bartaraf etadi. Natijada davlat xizmatlari koʻrsatish jarayoni tezlashadi, inson omili kamayadi va korrupsiya xavfi sezilarli darajada pasayadi.

Umuman olganda, E-gov.kz portali Qozogʻistonda raqamli davlatni shakllantirishning asosiy infratuzilmasi sifatida xizmat qilib, davlat boshqaruvida samaradorlik, shaffoflik va fuqarolarga yoʻnaltirilganlikni taʼminlamoqda.

Ichki boshqaruv tizimlari. Qozogʻistonda davlat organlarining ichki faoliyatini raqamlashtirish bir qator ixtisoslashgan axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi. Ular orasida E-Kyzmet va E-Otinish alohida ahamiyatga ega boʻlib, davlat boshqaruvida samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlikni taʼminlashga xizmat qiladi.

⁶ A digital government model framework for sustainable development. [United Nations E-Government Survey 2024](https://doi.org/10.18356/9789211067286), pp 1-33. <https://doi.org/10.18356/9789211067286>
SJIF: 5.051

E-Kyzmet — bu davlat xizmatini boshqarishning yagona integratsiyalashgan axborot tizimi bo‘lib, u davlat xizmatchilarining to‘liq hayotiy siklini raqamlashtiradi. Tizim quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Kadrlar hisobini yuritish: davlat xizmatchilarining yagona elektron bazasi shakllantiriladi;

Ishga qabul qilish jarayonlari: tanlov asosida ishga olish mexanizmlari avtomatlashtiriladi;

Faoliyatni baholash (KPI): xodimlar ishining samaradorligi aniq ko‘rsatkichlar asosida monitoring qilinadi;

Karyera boshqaruvi: lavozim o‘sishi va rotatsiya jarayonlari tizimli ravishda nazorat qilinadi;

“Raqamli iz” (digital footprint): har bir xodimning faoliyati, qarorlari va natijalari tizimda qayd etiladi.

Mazkur tizim orqali inson omiliga bog‘liq subyektiv qarorlar kamayadi va meritokratiya tamoyili mustahkamlanadi. Ushbu yondashuv OECD tomonidan ham davlat xizmatini modernizatsiya qilishning samarali vositasi sifatida e‘tirof etilgan⁷.

E-Otinish — fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqishni nazorat qiluvchi yagona raqamli platformadir. Ushbu tizim bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi. Xususan, yagona murojaatlar bazasi, ya’ni barcha davlat organlariga yuborilgan arizalar yagona tizimda jamlanadi; real vaqt monitoringi - murojaatlarning ko‘rib chiqilish holati onlayn kuzatiladi; mas’uliyat va nazorat - har bir murojaat bo‘yicha mas’ul ijrochi va bajarilish muddati belgilanadi hamda rahbarlar uchun analitika: davlat organlari rahbarlari

⁷ <https://oecd-public-integrity-indicators.org/>.

murojaatlar statistikasi va bajarilish darajasini real vaqt rejimida ko‘rishi mumkin. Masalan, agar biror hududda muayyan muammo bo‘yicha murojaatlar soni ortsa, tizim orqali bu holat tezda aniqlanadi va tegishli choralar ko‘riladi. Bu esa boshqaruv qarorlarini tez va asosli qabul qilish imkonini beradi.

Mazkur tizimlar Qozog‘iston Raqamli rivojlanish, innovatsiyalar va aerokosmik sanoat vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan raqamlashtirish siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, ular Qozog‘istonda “raqamli davlat” modelini shakllantirishda asosiy infratuzilmaviy yechimlar sifatida xizmat qilmoqda.

Ma’lumotlar integratsiyasi va Big Data. Qozog‘istonda davlat boshqaruvini raqamlashtirish jarayonining muhim yo‘nalishlaridan yana biri - davlat organlari o‘rtasida samarali ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish va katta hajmdagi ma’lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini shakllantirishdan iborat. Ushbu vazifalar Smart Bridge hamda Smart Data Ukimet platformalari orqali amalga oshiriladi.

Smart Bridge - davlat organlarining axborot tizimlarini o‘zaro bog‘lovchi yagona integratsion platforma hisoblanadi. U turli vazirlik va idoralar ma’lumotlar bazalarini birlashtirib, ular o‘rtasida tezkor va xavfsiz axborot almashinuvini ta’minlaydi. Mazkur platforma orqali “bir marta kiritish” (once and only) tamoyili amalga oshiriladi, ya’ni fuqaro yoki biznes subyekti tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar boshqa davlat organlari tomonidan qayta talab qilinmaydi⁸. Natijada davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi, ortiqcha byurokratik jarayonlar bartaraf etiladi va inson omili qisqaradi. Masalan, fuqaro

⁸ <https://sb.egov.kz/main-functions>.

biror xizmatdan foydalanganda uning shaxsiy yoki moliyaviy ma'lumotlari boshqa idoralardan avtomatik tarzda olinadi, bu esa xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartiradi va qulaylikni oshiradi.

Boshqa tomondan, Smart Data Ukimet platformasi davlat boshqaruvida katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishga xizmat qiladi. Ushbu tizim orqali turli sohalardan — masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport yoki ijtimoiy himoya tizimlaridan kelib tushadigan ma'lumotlar yagona markazda jamlanadi va chuqur analitik tahlildan o'tkaziladi⁹. Bu esa real vaqt rejimida monitoring olib borish, mavjud muammolarni tezda aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizim prognozlash va modellashtirish funksiyalarini ham bajarib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning kelajakdagi rivojlanishini oldindan baholashga yordam beradi.

Mazkur platformalarning joriy etilishi natijasida Qozog'istonda davlat boshqaruvi an'anaviy yondashuvdan zamonaviy, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tdi. Endilikda qarorlar subyektiv fikrga emas, balki aniq statistik va analitik ma'lumotlarga tayanib qabul qilinmoqda. Bu esa resurslarni samarali taqsimlash, davlat xizmatlari sifatini oshirish va boshqaruv tizimining umumiy samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mobil hukumat. Qozog'istonda davlat boshqaruvini raqamlashtirishning muhim bosqichlaridan biri mobil texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon natijasida eGov Mobile ilovasi ishlab chiqildi. Mazkur mobil platforma fuqarolarga davlat xizmatlaridan istalgan joyda va vaqtda foydalanish imkonini yaratib, elektron hukumat tizimini yanada qulay va ommabop shaklga olib chiqdi. Ilova orqali foydalanuvchilar turli davlat xizmatlariga murojaat qilish,

⁹ <https://sdu.gov.kz/>.

arizalar yuborish, ularning natijasini kuzatish, shuningdek, shaxsiy hujjatlarning raqamli nusxalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ayniqsa, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, haydovchilik guvohnomasi kabi hujjatlarning raqamli shaklda taqdim etilishi ularning huquqiy jihatdan tan olinishi bilan birga, kundalik hayotda sezilarli qulaylik yaratdi.

Mobil hukumatni rivojlantirishda davlat xizmatlarini xususiy sektor platformalari bilan integratsiya qilish ham muhim rol o'ynadi. Xususan, Kaspi.kz va Halyk Bank kabi yirik moliyaviy va raqamli platformalar bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi. Natijada fuqarolar o'zlari doimiy foydalanadigan bank ilovalari orqali ham davlat xizmatlariga kirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa xizmatlardan foydalanish darajasini keskin oshirdi, chunki foydalanuvchilar uchun alohida yangi platformani o'rganish zarurati kamaydi. Mazkur integratsiya davlat xizmatlarini aholiga yanada yaqinlashtirib, ularning qamrovini kengaytirdi hamda xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtirdi. Shuningdek, mobil texnologiyalar orqali davlat va fuqaro o'rtasidagi o'zaro aloqalar soddalashib, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi yanada moslashuvchan va foydalanuvchiga yo'naltirilgan modelga o'tdi. Natijada Qozog'istonda mobil hukumat konsepsiyasi muvaffaqiyatli shakllanib, raqamli davlatning ajralmas qismiga aylandi.

Muhokama

Qozog'iston tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvini raqamlashtirish oddiy texnologik yangilanish emas, balki chuqur institutsional o'zgarishlarni talab qiladigan kompleks jarayondir. Raqamli platformalarni joriy etish faqatgina texnik infratuzilmani yaratish bilan cheklanmaydi, balki davlat boshqaruvi falsafasini, qaror qabul qilish mexanizmlarini va davlat-fuqaro munosabatlarini tubdan

o'zgartirishni ham nazarda tutadi. Aynan shu jihat Qozog'iston modelining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Raqamli rivojlanishdagi ushbu omillarni batafsil tahlil qilsak, quyidagilarni alohida ko'rsatish muhimdir.

Birinchidan, yagona platformalar orqali markazlashgan boshqaruv tizimining shakllantirilishi davlat xizmatlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynadi. Masalan, E-gov.kz portali va unga integratsiyalashgan tizimlar barcha davlat xizmatlarini yagona muhitda jamlash imkonini berdi. Bu esa xizmatlar takrorlanishini bartaraf etib, resurslardan samarali foydalanishni ta'minladi. Markazlashuv natijasida davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish kuchaydi va boshqaruv jarayonlari soddalashdi.

Ikkinchidan, qonunchilik bazasining moslashuvchanligi raqamlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Qozog'istonda elektron hujjatlar, raqamli imzo va onlayn xizmatlarning huquqiy maqomi aniq belgilab qo'yilgan. Bu esa raqamli xizmatlarning ishonchliligini ta'minlab, ularni kundalik amaliyotga keng joriy etish imkonini berdi. Shu bilan birga, qonunchilikning tezkor ravishda yangilanib borilishi texnologik rivojlanish sur'atlariga moslashishga yordam berdi.

Uchinchidan, davlat organlari o'rtasida integratsiya darajasining yuqoriligi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Smart Bridge orqali turli idoralar axborot tizimlarining o'zaro bog'lanishi "bir marta kiritish" tamoyilini amalda qo'llash imkonini yaratdi. Bu nafaqat fuqarolar uchun qulaylik tug'dirdi, balki ma'lumotlar almashinuvi tezligini oshirib, boshqaruv samaradorligini ham sezilarli darajada yaxshiladi.

To‘rtinchidan, proaktiv xizmatlar tizimining rivojlanganligi davlat boshqaruvining yangi bosqichga o‘tganini ko‘rsatadi. Fuqarolardan ariza kutish o‘rniga, davlat tizimlari ularning ehtiyojlarini oldindan aniqlab, xizmatlarni avtomatik tarzda taqdim etadi. Bu yondashuv davlat xizmatlarini maksimal darajada foydalanuvchiga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi va davlat bilan fuqaro o‘rtasidagi aloqani soddalashtiradi.

Mazkur tajriba O‘zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Avvalo, yagona integratsion platformani rivojlantirish orqali davlat organlari o‘rtasida samarali axborot almashinuvini ta‘minlash zarur. Bu xizmatlar sifatini oshirish bilan birga, byurokratik jarayonlarni qisqartiradi. Shuningdek, davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish va ularni bosqichma-bosqich proaktiv shaklga o‘tkazish aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning qulayligi va tezkorligini oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli hujjatlarning huquqiy maqomini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Agar raqamli hujjatlar qog‘oz shaklidagi hujjatlar bilan tenglashtirilsa, bu mobil hukumatni rivojlantirish va xizmatlarni to‘liq elektron shaklga o‘tkazish uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bilan birga, katta hajmdagi ma‘lumotlar asosida boshqaruv tizimini joriy etish, ya‘ni Big Data texnologiyalaridan foydalanish davlat qarorlarining aniqligi va samaradorligini oshiradi. Bu borada Smart Data Ukimet kabi tizimlar muhim tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Davlat xizmatchilarining raqamli kompetensiyalarini oshirish ham ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Chunki har qanday texnologik yangilik inson omili orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, davlat xizmatchilarini zamonaviy IT ko‘nikmalar bilan ta‘minlash raqamlashtirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida bir qator muammolarni ham e‘tibordan chetda

qoldirmaslik zarur. Jumladan, kiberxavfsizlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib, davlat axborot tizimlarining himoyasi yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash maxfiylik xavfini oshiradi. Bundan tashqari, raqamli tengsizlik muammosi, ya'ni aholining barcha qatlamlari raqamli xizmatlardan teng darajada foydalana olmasligi ham muhim ijtimoiy omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Qozog'iston tajribasi davlat boshqaruvini raqamlashtirishda texnologiya, institutlar va inson kapitalining uyg'unligi zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvni milliy sharoitlarga moslashtirgan holda qo'llash O'zbekistonda ham samarali raqamli davlat tizimini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qozog'istonda davlat boshqaruvini raqamlashtirish izchil strategiya, mustahkam huquqiy asos va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligida amalga oshirilgan. Natijada davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi soddalashib, aholiga qulay va tezkor shaklga keltirildi, boshqaruv jarayonlarida esa ochiqlik va hisobdorlik sezilarli darajada oshdi. Eng muhimi, raqamlashtirish davlat organlari faoliyatini sifat jihatdan yangilab, qaror qabul qilishni aniq ma'lumotlarga tayanadigan tizimga o'tkazdi.

Mazkur tajriba O'zbekiston uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Uni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki milliy sharoit, institutsional imkoniyatlar va ijtimoiy ehtiyojlarni inobatga olgan holda moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, yagona raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat xizmatlarini to'liq

elektron shaklga o'tkazish hamda boshqaruvda zamonaviy analitik yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonini faqat texnologik modernizatsiya sifatida emas, balki davlat boshqaruvini takomillashtirish vositasi sifatida ko'rish muhimdir. Bunday yondashuv davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, xizmatlar sifatini oshirish va umumiy boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: Farmon. – Toshkent, 2020. <https://raqamlitarix.uz/wp-content/uploads/2022/12/PF-6079-05.10.2020.pdf>.
2. Qozog'iston Respublikasi "Raqamli Qozog'iston" davlat dasturi. – 2018. <https://www.gov.kz/memleket/entities/maidd/activities/14764>.
3. United Nations. E-Government Survey 2024: Digital Government for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2024. <https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2024-09/%28Web%20version%29%20E-Government%20Survey%202024%201392024.pdf>.
4. United Nations. E-Government Survey 2022. – New York: United Nations, 2022. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/reports/un-e-government-survey-2022>.
5. OECD. Digital Government Review of Kazakhstan. – Paris: OECD Publishing, 2020.

<https://www.oecd.org/en/search.html?orderBy=mostRelevant&page=0&facetTags=oecd-countries%3Akaz%2Coecd-languages%3Aen>.

6. World Bank. GovTech Maturity Index Report. – Washington DC: World Bank, 2023.

<https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/10b535a7-e9d4-51bd-96ed-6b917d5eb09e>.

7. Qozog‘iston Respublikasi Raqamli rivojlanish, innovatsiyalar va aerokosmik sanoat vazirligi rasmiy materiallari.

8. E-gov.kz rasmiy portali. <https://egov.kz/cms/ru>.

9. eGov Mobile mobil ilovasi. https://egov.kz/cms/ru/information/about/mobile_application.

10. Smart Bridge integratsion platformasi. <https://sb.egov.kz/>.

11. Smart Data Ukimet tahliliy tizimi. <https://sdu.gov.kz/>.

12. Bekmuratov A. Davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalar. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – 156 b. <https://interoncof.com/index.php/chelyabinsk/article/view/4345>.

13. UNDP. Digital Transformation in Public Administration. – New York: UNDP, 2024. <https://www.undp.org/evaluation/publications/evaluation-undp-support-digitalization-public-services#:~:text=January%2031%2C%202024,financial%20services%20and%20data%20interoperability>.